



UO'K: 796.012.38+150.9

JISMONIY TARBIYANI BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI

СВЯЗЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ С ДРУГИМИ ПРЕДМЕТАМИ

THE CONNECTION OF PHYSICAL EDUCATION WITH OTHER SUBJECTS

Madaminov Orifjon Nishanbayevich 

Farg'ona davlat universiteti Sport faoliyati turlari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasiga oid masalalar ochib berilgan bo'lib, bunda jismoniy tarbiyaning tashkil etish shakllari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari va chiniqtirish masalalari, jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va umumiy prinsiplari, jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirishga yo'naltirilganlik tamoyili, tashqi muhit omillarining jismoniy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyat bolalarning kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlarini, hamda ularni rivojlantirish yo'llari va vositalari oid ma'lumotlar berilgan.

Аннотация

В данной статье раскрываются вопросы, связанные с физическим воспитанием детей дошкольного возраста, в которых широко рассматриваются формы организации физического воспитания, физкультурно – воспитательная деятельность, спортивные игры и вопросы обучения, цель и задачи физического воспитания и общие принципы, принцип ориентации на здоровье, значение факторов внешней среды как средства физического воспитания, сведения о силовых качествах детей, быстроте, ловкости, выносливости и гибкости, а также путях и средствах их развития.

Abstract

This article reveals issues related to the physical education of preschool children, which widely consider the forms of organization of physical education, physical culture and educational activities, sports games and training issues, the purpose and objectives of physical education and general principles, principles of health orientation, the importance of environmental factors as a means of physical education, information about power the qualities of children, speed, dexterity, endurance and flexibility, as well as ways and means of their development.

Kalit so'lar: umumiy va maktabgacha pedagogika, jismoniy tarbiya psixofiziologiyasi, bolalar psixologiyasi, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlari.

Ключевые слова: общая и дошкольная педагогика, психофизиология физического воспитания, детская психология, быстрота, ловкость, выносливость и гибкость.

Key words: general and preschool pedagogy, psychophysiology of physical education, child psychology, speed, dexterity, endurance and flexibility.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

Mazkur maqolada jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va umumiy prinsiplari keltirilgan. Jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirishga yo'naltirilganlik tamoyili, tashqi muhit omillarining jismoniy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Bolalarning kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlarini, hamda ularni rivojlantirish yo'llari va vositalari ko'rsatib berilgan. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning organizmiga jismoniy tarbiyaning ta'siriga alohida o'rin berilgan. Shu bilan birga, har bir jismoniy tarbiya mutaxassisining bolalarga jismoniy va ruhiy ta'sir etish barobarida uning a'zolarida kechadigan fiziologik jarayondan xabardor bo'lishga undovchi ma'lumotlar keltirilgan. Salomatlik va kasallik tushunchalari, jismoniy faollikning turli

kasalliklarning oldini olishdagi roli yoritilgan. Mashg'ulot va darslarini qiziqarli, sifatli, samarali o'tkazishda didaktik hamda harakatli o'yinlar, noananaviy usul, vosita, jihozlardan foydalanish tavsiya qilingan.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

O'zbekistonda Sh.X.Xankeldiyev, Muradov F.M., Muradov F.M., O'rinboyev E.A., Djumakulov Sh., Raxmatova D.N., Xolmurodov L.Z. lar o'z bilimlari va ko'nikmalarini turli sohalarda amalda qo'llay oladigan sog'lom yosh avlodni tarbiyalash muammosi jamiyat rivojlanishining ustuvor strategik yo'nalishiga aylanganligi va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning harakat tayyorgarligi jismoniy tarbiya yo'nalishlaridan biri ekanligini yetarlicha keng o'rganganlar. Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkillangan.

Maktabgacha jismoniy tarbiya fani bolalarni rivojlantirish nazariyasi ilmiy fanlarning kompleksi bilan bog'liq. Ulardan ba'zilar jismoniy madaniyatni rivojlantirish va tashkil etishning ijtimoiy qonunlarini, jismoniy mashqlarning bola tanasi va ruhiyatiga ta'sirini, shuningdek, pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari va usullaridan foydalanishni o'rganadilar (jismoniy madaniyatning umumiy nazariyasi va usullari, umumiy va maktabgacha pedagogika, jismoniy tarbiya psixofiziologiyasi, bolalar psixologiyasi).

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati o'quv fani sifatida mutaxassislar oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur bilimlar, professional faoliyat jarayonida zaruriy ko'nikma va bilimlar bilan qurollantiradi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatining vujudga kelishi va rivojlanishida jamiyat taraqqiyoti va ayrim insonlarning yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ehtiyoj tug'ilishini anglaganliklari turtki bo'ldi. Bu ehtiyoj qonuniyligini o'rganishga intilishni talab qiladi, uning asosida harbiy ish va mehnatda yuqori natijalarga erishish uchun insonning jismoniy rivojlanishini boshqarish yotadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Amaliyotning rivojlanishiga qarab muayyan nazariy holatni vujudga keltiruvchi maxsus fan yuzaga keldi. Bu fanni ikki bo'limga ajratish mumkin:

jismoniy tarbiyaning ijtimoiylik predmeti, jismoniy tarbiyani tashkillashtirishning qonuniyligi tarix, sport psixologiyasi va boshqalarning qonuniyligini o'rganuvchi maxsus gumanitar harakterdagi fandır. Jismoniy tarbiya sharoitida (dinamik anatomiya, fiziologiya, biokimyó va biomexanika, jismoniy mashqlar va boshqalar) organizmning rivojlanishi va ishlab turishining qonuniyligini o'rganuvchi biologik harakterdagi fan. Bu fanlardan olingan umumashtirilgan ma'lumotlar va ular asosida jismoniy tarbiyaning umumiy qonuniyatini bilish bilan jismoniy tarbiya nazariyasi shug'ullanadi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya nazariyasi pedagogik jarayon sifatida jismoniy tarbiyaning umumiy qonuniyatini o'rganishga qaratilgan. Bu qonuniyat teng darajada aholining har qanday kontingentini jismoniy tarbiyasiga ham tegishlidir. Jismoniy tarbiya uslubiyatining o'rganish predmeti shug'ullanuvchilarning aniq yoshiga yo'naltirilgan, ularning kasbiy faoliyati, sport ixtisosligiga ega bo'lgan jismoniy tarbiyaning xususiy qonuniyatini o'rgatishdan iboratdir. Binobarin, jismoniy tarbiyaning uslublari ko'p. Pedagogik tavsiya ko'rinishida umumiy qonuniyatni amalga oshirishda uslubiyatning bu qonuniyatlari shug'ullanuvchilar va jismoniy tarbiya rahbarlari harakatlarini tasvirlashga aylanib qoladi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati barcha sport-pedagogika fanlari bilan mustahkam bog'langan holda ishlab chiqilgan umumiy qonuniyat nazariyasiga tayanadi, sport-pedagogik fanlaridan olingan aniq ma'lumotlar esa nazariyaning kelajakdagi umumashtirish predmeti bo'lib hisoblanadi.

Nazariya va uslubiyatning pedagogika bilan aloqasi jismoniy tarbiyaning birlamchi vazifasidir. Jismoniy tarbiya jarayonida o'sib kelayotgan avlodning bilim va tarbiyasi sohasida psixologiya va umumiy pedagogikaning yutuqlaridan ijodiy foydalaniladi. Jismoniy tarbiya jarayoni samarali boshqarilishini faqat shug'ullanuvchilar organizmi ishlab turishining biologik qonuniyatini muntazam hisobga olgan taqdirdagina bilish mumkin.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatining mazmunini quyidagi masalalar tashkil etadi:

PEDAGOGIKA

Jismoniy tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida uning boshqa tarbiya turlari bilan aloqasi, jismoniy tarbiyaning tamoyillari, umumiy vazifasi, maqsadi bilan aniqlanadi. Mazmunida talaygina o'rinni jismoniy tarbiyaning vositalari tavsifi, uslubiy tamoyillar va harakatlarni o'rgatish uslublari, jismoniy sifatlarning rivojlanishi, jismoniy mashqlar bilan o'rgatish jarayonining tuzilishi, shuningdek, jismoniy tarbiya uslubining xususiyati, jumladan, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar sport mashqlari egallaydi.

Bolaning biologik rivojlanish protseduralarini boshqa fanlar (biomedikal tsikl, masalan fiziologiya, anatomiya, tibbiyot, biologiya) o'rganadi. Yuqoridagi fanlarning har biri jismoniy rivojlanishning ma'lum bir tomonini o'rganadi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi mustaqil fan sifatida turdosh fanlarning yutuqlarini birlashtiradi va tizimga soladi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi gumanitar karakterdagi fanlar majmuasi – jismoniy tarbiya va ta'limning umumiy nazariyasi, umumiy va maktabgacha pedagogika, jismoniy madaniyat va sport psixologiyasi, bola, yosh, ijtimoiy psixologiya, falsafa va boshqalar bilan bog'liq.

Shuningdek, u biotibbiyot va tabiatshunoslik fanlari - fiziologiya, mashqlar biomexanikasi, anatomiya, pediatriya, neyropsixologiya, gigiena, tibbiy-pedagogik nazorat va boshqalarga tayanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytiz joizki jismoniy madaniyatning umumiy nazariyasi va usullari, umumiy va maktabgacha pedagogika, jismoniy tarbiya psixofiziologiyasi, bolalar psixologiyasi tayyorgarlik ahamiyatini kuchaytirgan holda o'quv jarayoniga innovasion pedagogik texnologiyalartini joriy etishlari maqsadga muvofiq. Ommaviy sport sog'lomlashtirish tadbirlari, vosita va mashg'ulotlari uzoq sog'lom umr ko' rishlari, organizmning salomatligi, uni kunlik o' quv va mehnat faoliyatiga oid nazariy va amaliy bilimlari, ko' nikma va malakalariga aniqlik kiritilib, egallashi lozim bo' lgan harakat faolligi, organizmga tushadigan kunlik, haftalik jismoniy yuklamalar, ular uchun sariflanadigan quvvat va uni tiklash uchun jismoniy mashiqlardan samarali foydalanish usullarining amaliy va nazariy bilimlari dasturi yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ханкельдиев Ш.Х. Физический статус учащейся молодежи. Монография. –Ташкент: 2018, -С. 432. (Khankeldiev Sh.Kh. Physical status of student youth. Monograph. -Tashkent: 2018, -S. 432)
2. Муродов Ф.М. Физическое воспитание в дошкольном образовании. Учебная пособия . Издательство Уз ДЖТСУ Чирчик.,-2020. Muradov F.M. Development of physical abilities of a young athlete. Textbook T., 2020.
3. Muradov F.M., O'rinboyev E.A., Djumakulov Sh. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya Darslik. O'zDJTSU nashriyoti, Chirchiq. 2021. Физическое воспитание в дошкольном образовании. Учебник. Издательство Уз ДЖТСУ Чирчик.2021 Physical education in preschool education UzJTSU 2021.
4. Raxmatova D.N., Xolmurodov L.Z. Maktabgacha va boshlangich ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. – T., 2020. Теория и методика физического воспитания в дошкольном и начальном образовании Учебная пособия T., 2020. Theory and methods of physical education in preschool and primary education in. Teaching aid T., 2020.